**Аннотация:** В статье анализируется экономическая сущность внедрения инновационной деятельности в страховых организациях, ее теоретико-методологические основы и практические механизмы на основе системного подхода. В исследовании глубоко изучено влияние инновационных процессов на андеррайтинговую политику, маркетинговую стратегию, бизнес-процессы и систему обслуживания клиентов страховых организаций.

В работе раскрывается эволюция понятия инноваций, интерпретации инноваций в страховой сфере на основе теории Й. Шумпетера, рекомендаций «Руководства Осло – 2018» и «Руководства Фраскати – 2015». Проанализированы цифровые технологии в страховании, экосистемный подход, микрострахование, онлайн-платформы, автоматизированные системы андеррайтинга, а также инновации в маркетинге и управлении взаимоотношениями с клиентами.

В исследовании дана оценка механизмам поддержки инновационных процессов на страховом рынке Узбекистана на основе реализуемых реформ, указов Президента и решений Правительства. Обоснована роль инновационной стратегии в обеспечении адаптивности и конкурентоспособности страховых организаций в условиях пандемии, демографических изменений и цифровизации.

Также проанализированы роль страховых агентов и брокеров в инновационных процессах, вопросы сегментации клиентов, требования и поведенческие особенности потребителей нового поколения, а также диверсификация страховых продуктов.

Результаты исследования служат научной основой для разработки практических рекомендаций по совершенствованию инновационной политики в страховой сфере, повышению качества услуг, ускорению цифровой трансформации и обеспечению устойчивого развития национального страхового рынка.

**Ключевые слова:** инновации, страховые организации, инновационная деятельность, андеррайтинговая политика, цифровизация, страховая экосистема, маркетинговые инновации, страховой рынок, клиентоориентированный подход, микрострахование, конкурентоспособность, технологическая трансформация, страховые продукты, управление рисками.

## KIRISH

Jahonning barcha davlatlari, xususan, O'zbekiston ham sivilizatsiyaning yangi pog'onasini, ya'ni innovatsion rivojlanish jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Fan va texnika yutuqlari, nanotexnologiyalar, bulutli texnologiyalar, genetik injeneriya, iqtisodiy munosabatlarning raqamlashuvi innovatsion yondashuvlar orqali mehnat unumdorligining ijobiy o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi.

Yangi O'zbekistonda innovatsion faoliyatni tashkil etish maqsadida tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Mamlakatning innovatsion yo'lda rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir nechta omillarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin, masalan: malakali kadrlarning yetishmasligi, oliy o'quv yurtlari va ilmiy institutlarning moddiy-texnik bazasi eskirganligi, ilm-fan va innovatsiyaning rivojlanishiga moliyaviy ta'sirning kamligi. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston budjetidan YAIMga nisbatan 0,2 foiz ilm-fan va innovatsiyalarga mablag' yo'naltirilmoqda, vaholanki, dunyodagi o'rtacha ko'rsatkich 1,7 foizni, Xitoyda 2,4 foizni, Janubiy Koreyada esa 4,5 foizni tashkil etadi. XXI asrda innovatsion faoliyat jamiyat taraqqiyotining drayveri hisoblanadi, shundan kelib chiqib, innovatsiyalarning iqtisodiy mohiyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha moliyaviy bozorlar singari sug'urta bozori ham innovatsiyalar ta'siriga uchramoqda, sug'urta tashkilotlarining innovatsion faoliyati mamlakatning global innovatsion indeksida o'rin olishiga turtki bo'lmoqda. Global innovatsion indeksda yetakchi o'rinlarni Shveysariya, Shvetsiya, AQSH va Singapur egallamoqda. Sug'urta tashkilotining imiji asosan uning xalqaro reytinglardagi o'rne, xalqaro hamjamiyatda tan olinganligi kabi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Umuman olganda, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, butun mamlakatning innovatsion indeksini baholashda 80 dan ortiq ko'rsatkichlar mavjud. Sug'urta tashkiloti o'z imijini oshirishga innovatsiyalarni joriy qilish orqali erishishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta tashkilotlari faoliyatiga innovatsiyalarning zarurligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir, biroq sug'urta tashkilotlarining aksariyat hollarda innovatsiyalarga samarali vosita sifatida qaramasdan, ularga yetarli darajada e'tibor berilmayotganini ko'rish mumkin. Sug'urta tashkilotining innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda maqsadlarni belgilab olish zarur. Sug'urtada innovatsiyalarning asl mohiyati va metodologik asoslarini tadqiq etish hamda innovatsiyalarning sug'urta sohasiga ta'sirini fundamental jihatdan o'rganib chiqish lozim.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy tadqiqotlarda va adabiyotlarda "innovatsiya" tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Birinchi marta innovatsiya tushunchasiga ta'rifni XVI–XVIII asrlarda A. Smit, D. Rikardo, keyinchalik K. Marks asarlarida ham uchratish mumkin. Avstriyalik olim Yozef Shumpeter innovatsiya tushunchasiga oid bugungi kun ehtiyojlari va fan-texnika taraqqiyotini inobatga olgan holda tadqiqotlar olib borgan.



Iqtisodiy kategoriya sifatida “innovatsiya” lotin tilidagi “novatsiya”, ya’ni “yangilash” so’zidan olingan bo’lib, so’zma-so’z tarjimada “yangilanish yo’lida” degan ma’noni anglatadi. “Innovatsiya” atamasini iqtisodiyotda, yuqorida qayd etilganidek, avstriyalik olim Yozef Shumpeter XX asrda fan va texnologiyalar rivojlanishi bilan bevosita bog’lagan. Uning ta’kidlashicha, innovatsiya ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish jarayonlarida texnik va texnologik yangiliklarni, yangi sotuv kanallarini joriy etish, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish orqaligina iqtisodiy o’sishga erishish imkonini beradi.

Innovatsiyalarning nazariy jihatlarini rus iqtisodchi olimi G. V. Plexanov asarlarida ham yoritilgan bo’lib, u “ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish jarayonlarini doimiy takomillashtirib borish, fan va texnika taraqqiyotini ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish, iste’mol jarayonlarini intensiv rivojlantirish” kabi masalalarni ko’rib chiqqan<sup>1</sup>.

B. Santo “Innovatsiyalar – iqtisodiy o’sish vositasi sifatida” deb nomlangan asarida innovatsiyalarga ta’rif berar ekan, “iqtisodiyotdagi barcha jarayonlarga yangilik kiritish, ishlab chiqarish, nanotexnologiyalar, genetik injeneriya, ijtimoiy va siyosiy sohalarga joriy etilayotgan yangi yondashuvlarning barchasi innovatsiyalar hisoblanadi”, degan xulosaga kelgan<sup>2</sup>.

B. Tvissning “Ilmiy-texnik yangiliklarni boshqarish” nomli asarida “innovatsion jarayon yangicha boshqaruvni talab qiladigan, yangi tamoyil va qoidalarga asoslanuvchi murakkab jarayondir”, deb ta’kidlanadi. Uning fikricha, korxonalar va tashkilotlarning boshqaruv jarayonlariga innovatsiyalarni kiritish har qanday faoliyat turining samaradorligini belgilaydi<sup>3</sup>.

Iqtisodchi J. Mensh “Innovatsiyalar orqali iqtisodiy krizisning oldini olish” asarida innovatsiyalarning ishlab chiqarishda qo’shilgan qiymat hosil qilishdagi o’rni to’g’risida so’z yuritgan. Uning ta’kidlashicha, iqtisodiy, texnik va ijtimoiy jarayonlarni innovatsiyalar, ya’ni yangiliklar kiritish orqali yaxshilash va qo’shimcha daromad olish mumkin<sup>4</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sug’urta tashkilotlarida innovatsiyalarning iqtisodiy mohiyatini aniqlash maqsadida rasmiy statistik ma’lumotlar, soha hisobotlari va ilmiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy va dinamik tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanilib, innovatsiyalarning sug’urta faoliyatiga ta’siri baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sug’urta tashkilotlariga innovatsion faoliyatni kiritish va sohaga yangi texnologik jarayonlar ta’siri bevosita sug’urta tashkilotida amalga oshirilayotgan andarrayting siyosati bilan bog’liq. Shu bilan birga, sug’urta tashkilotlarining innovatsion faoliyatini kuchli raqobat sharoitida tahlil qilish asosiy omil hisoblanib, ilmiy-amaliy hamda nazariy-metodologik ahamiyatga ega. Mamlakatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va sug’urta tashkilotlarida innovatsion jarayonlarni joriy etishni qo’llab-quvvatlash sug’urta tashkilotlari xizmatlari samaradorligini oshirib, ularning nazariy-metodologik va fundamental asoslarini mustahkamlash hamda istiqbolli yo’nalishlarda tadqiq etishni belgilab berdi. Sug’urta tashkilotlari xizmatlarining sifat ko’rsatkichlarini yaxshilash va takomillashtirish yo’lidagi nazariy va amaliy chora-tadbirlar hamda muammolarni samarali hal etish belgilab olindi.

O’zbekiston sug’urta bozorining rivojlanishi global tendensiyalarga mos ravishda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvarda tasdiqlangan “2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli<sup>5</sup> Farmonida Yangi O’zbekistonning rivojlanishida sug’urta tizimining alohida o’rni borligiga e’tibor qaratilgan. Xususan, “Aholiga ko’rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budget mablag’laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug’urtalash amaliyotini joriy qilish” 56-maqсад sifatida ko’rsatib o’tilgan. Bundan ko’rinib turibdiki, aholini ijtimoiy himoya qilishda yangi sug’urta turlarini joriy etish maqsadga muvofiq bo’lib, bu 2023-yil mamlakatimizda amalga oshirilgan “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” dasturiga ham to’liq mos keladi<sup>6</sup>.

1 Plexanov G.V. O materialisticheskoy ponimaniy istorii. – M., 1938 god. Gosudarstvennoye izdatelstvo politicheskoy literatury Gospolitizdat.

2 Santo Boris. Innovatsiya kak sredstvo ekonomicheskogo razvitiya. / B.Santo; per. s veng. s izm. i dop. avt.; obsh. red. i vstup. st. B.V.Sazonova. – M.: Progress, 1990. – 295. ISBN 5-01-002034-3

3 Tviss B. Upravleniye nauchno-texnicheskimi novovvedeniyami. Per. s angl. – M.: Ekonomika, 1989. – 271 s.

4 Mensh G. Stalemate in Technology: Innovation Overcome the Depression. Cambridge (Mass.), 2016.

5 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

6 O’zbekiston Respublikasi Prezidentning 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni bilan 2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi. // <https://lex.uz/docs/-6396146>



Bugungi kunda jahon moliya bozorlari dunyodagi siyosiy ziddiyatlarning tobora o'sib borayotganiga qaramay, keskin rivojlanish ko'rsatkichlariga ega. Sug'urta tashkilotlarining muvaffaqiyat asosi zamon talablariga mos ravishda yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni bozorga olib chiqishdir. Hozirgi kunda an'anaviy sug'urta mahsulotlarini sotish orqali barcha potensial mijozlarni jalb qilish imkoni yo'q, mijozlar o'zlariga ma'qul sug'urta tashkilotini tanlashga haqli. Shuni inobatga olib, bozorda raqobat ustunligini ta'minlovchi xatti-harakatlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ammo gohida mijozlar umumqabul qilingan va sinalgan tartib-tamoyillarni o'zgartirishga qiynaladilar, aholi orasida keksa yoshdagilar konservativ sug'urta xizmatlarini sotib olishni afzal ko'radilar, onlayn sug'urtaga ishonchlari past. Shu sababli sug'urta tashkilotlari mijozga individual yondashish bilan bir qatorda ommabop mikrosug'urta turlarini joriy qilishi maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida "innovatsiya" lotin tilidagi "novatsiya", ya'ni "yangilash" so'zidan olingan bo'lib, so'zma-so'z tarjimada "yangilanish yo'lida" degan ma'noni bildiradi. "Innovatsiya" so'zini iqtisodiyotda, yuqorida aytib o'tganimizdek, avstriyalik olim Yozef Shumpeter birinchi marta XX asrda fan va texnologiyalar rivojlanishi bilan bevosita bog'lagan. Uning ta'kidlashicha, innovatsiya ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish jarayonlarida texnik va texnologik yangiliklarni, yangi sotuv kanallarini joriy qilish, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga yangilangan texnologiyalarni tatbiq etish orqaligina iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

Yozef Shumpeter innovatsiyalarning nazariy asoslarini tadqiq qilish jarayonida ularni quyidagi turlarga ajratishni taklif qilgan:

- tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda butunlay yangi yo'nalishlardan foydalanish hamda avval ishlab chiqarilmagan tovar va xizmatlarni yaratish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va logistikada yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, yangi sotuv kanallarini yaratish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun yangi mijozlar bazasini shakllantirish;
- resurs bazasini yangilash va alternativ resurslardan foydalanish;
- korxonalar va tashkilotlar boshqaruvida menejmentning yangi yo'nalishlarini joriy qilish<sup>7</sup>.

Sug'urta tashkiloti tomonidan kiritilayotgan har bir innovatsiya va innovatsion yondashuv boshqa tashkilotlardan bozordagi ustunligini ko'rsatadi. Sug'urta tashkilotlari raqobat muhitida rivojlanayotgan bir paytda innovatsiyalar ma'lum qabul qilingan tartib-tamoyillarni o'zgartirgan holda, boshqa sug'urta tashkilotlari taqdim eta olmayotgan sug'urta xizmatlarini yoki sug'urta xizmatlari bo'yicha sug'urta tariflarini taklif qiladi.

Innovatsiyalar bo'yicha xalqaro standartlarda ta'riflar keltirilgan bo'lib, ulardagi farqlarni ko'rib chiqamiz:

– "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti" hamda "Oslo yo'riqnomasi – 2018" tomonidan keltirilgan tavsiyalarga asosan innovatsiya tubdan yangi yoki takomillashtirilgan tovar yoki xizmatlar, shuningdek, muayyan biznes jarayonlari, boshqaruv jarayonlari, marketing, tashqi aloqalar, logistika va boshqa jarayonlarni yaratishni anglatadi<sup>8</sup>;

– «Fraskati yo'riqnomasi – 2015» tomonidan taqdim etilgan tavsiyalarga ko'ra, yangi yoki takomillashtirilgan tovar va xizmatlar, innovatsion jarayonning pirovard mahsulotidir, ya'ni fan va texnikaning yangi vositalaridan foydalangan holda namoyon bo'luvchi texnologik jarayondir<sup>9</sup>.

Ushbu yo'riqnomalarda ta'kidlanishicha, har qanday mahsulot yangi texnologik jarayonni boshdan kechirsagina innovatsion mahsulotga aylanishi mumkin. Yangi texnologik jarayonlar sug'urta sohasida sug'urta xizmatlariga kiritilgan o'zgarishlar yoki yangi sug'urta mahsulotlarini yaratish bilan bog'liq hisoblanadi. Hozirda sug'urta faoliyatining ekotizimini yaratish ham yangi texnologik jarayonni boshdan kechirmoqda. Ushbu jarayon aynan innovatsion jarayon hisoblanib, undagi xizmatlar sug'urta tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshiradi hamda mijozlarga qulayliklar yaratadi.

Sug'urta tashkilotlari tomonidan innovatsiyalarga qaratilgan muvaffaqiyatli investitsiyalar sug'urta tashkilotining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini oshirishga hamda sug'urta tashkilotining jahon bozorida raqobatbardoshligi ortishiga olib keladi.

"Oslo yo'riqnomasi - 2018" tavsiyalariga ko'ra, innovatsiyalar to'rtta yo'nalishga ajratib ko'rsatiladi:

1. "Tovar va xizmatlar innovatsiyasi — bunda sifati va foydalanish xususiyatlariga yangicha yondashilgan holda tovar va xizmatlarga kiritilgan innovatsiyalar tushuniladi. Sug'urta tashkilotlari tomonidan bunday holatlarda yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, ommabop sug'urta turlarini yaratish, mijozga yo'naltirilgan individual sug'urta xizmatlarini ishlab chiqish, xizmat ko'rsatish sifati va tezligini oshirish, sug'urta sohasiga yangi raqamli texnologiyalarni kiritish hisoblanadi"<sup>10</sup>.

7 The Nature and Essence of Economic Theory 1st Edición. de [Joseph A. Schumpeter](#). Nature-Essence-Economic-Theory/ dp/1412865344

8 Rukovodstvo Oslo. Rekomendatsii po sboru i analizu dannyx po innovatsiyam Tretye izdaniye. Sovmestnaya publikatsiya OESR i Yevrostata. Organizatsiya ekonomicheskogo sotrudnichestva i razvitiya statisticheskoye byuro yevropeyskix soobshchestv.

9 Frascati Manual 2015. Guidelines for Collecting and Reporting Data on Research and Experimental Development. <https://www.oecd.org/sti/frascati-manual-2015-9789264239012-en.htm>

10 Rukovodstvo Oslo. Rekomendatsii po sboru i analizu dannyx po innovatsiyam Tretye izdaniye. Sovmestnaya publikatsiya OESR i Yevrostata. Organizatsiya ekonomicheskogo sotrudnichestva i razvitiya statisticheskoye byuro yevropeyskix soobshchestv.




2. Biznes jarayonlar innovatsiyasi — sug'urta tashkilotlari tomonidan yangi sug'urta xizmatlarini ishlab chiqishda va yangi sotuv kanallarini joriy qilishda innovatsiyalardan foydalanish, sug'urta tashkilotining ish yuritish xarajatlarini kamaytirish hamda sug'urta faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

3. Benchmarking va marketing faoliyatidagi innovatsiyalar — benchmarking sug'urta tashkiloti tomonidan bozorda raqobat ustunligiga ega faoliyat turidan andoza olishni anglatadi. Sug'urta bozorida nafaqat xorijiy mamlakatlar tajribasidan, balki mahalliy tadbirkorlar faoliyatidan ham andoza olish mumkin. Masalan, O'zbekistonda UZUM onlayn do'koni onlayn sotuvlar bo'yicha ma'lum natijalarga erishib, hozirda eng yirik onlayn do'konlardan biri hisoblanadi. To'g'ri amalga oshirilgan marketing strategiyasi ularga muvaffaqiyat olib keldi. Sug'urta tashkilotlari tomonidan ehtimoldagi mijozlar ehtiyojlarini oldindan o'rganish va onlayn sug'urta xizmatlarini taqdim etish raqobat ustunligiga olib keladi.

4. Ekotizim innovatsiyalari — sug'urta tashkilotlarida sug'urta ekotizimini yaratish bir qator imkoniyatlarni beradi. Jumladan, mijozlar ehtiyojlarini kompleks qondirish, qo'shimcha xizmatlarni tashkil etish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish, yangi zamon talablariga mos ravishda kadrlar malakasini oshirish hamda xorijiy hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishni kiritish mumkin.

Sug'urta tashkilotlaridagi innovatsion jarayonlarni quyidagicha ajratish mumkin. Ushbu jarayonga turli omillarning ta'siri doirasidagi nazariy bilimlarni mujassamlashtirgan holda yondashiladi (1-rasm):



1-rasm Sug'urta tashkilotlaridagi innovatsion jarayonlar<sup>11</sup>

G'arbiy iqtisodiy maktab sug'urta tashkilotlari innovatsion faoliyatini uch turga ajratishni tavsiya etadi:

- keng imkoniyatlar innovatsiyalari — sug'urta tashkilotlari tomonidan mijozlarga yangi, talablarga mos sug'urta mahsulotlarini taklif etish, bunda iqtisodiy samara beruvchi, mijozlarga qulay va bitta platformada bir nechta xizmatlarni ko'rsatish imkoniga ega sug'urta elektron makonini yaratish hamda shu orqali mijozlar bazasini kengaytirish;

- sug'urta bozorining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mijozlar strategiyasini amalga oshirish — sug'urta tashkilotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri nafaqat yangi mijozlarni jalb qilish, balki mavjud mijozlar bazasini saqlab qolish bo'lib, bu ham bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, innovatsion faoliyat ushbu yo'nalishni ham o'z ichiga oladi;

- innovatsion anderrayting jarayonlari — sug'urta tashkilotlari mijozlar bazasini kengaytirishning samarali yo'li hisoblanib, ish faoliyatini soddalashtirish, mijozlarga qulayliklar yaratish va "hozir va shu yerda" prinsipini joriy etish orqali mazkur masalalarni hal etish imkonini beradi.

Sug'urta tashkilotlarining muvaffaqiyatli rivojlanish yo'nalishlaridan yana biri sug'urta xizmatlarini mijozlarga yetkazib berishga qaratilgan marketing innovatsiyalaridir. Marketing innovatsiyalari innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga olgan marketing strategiyasini ishlab chiqish va ushbu yo'nalishda chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Marketing innovatsiyalarining bir nechta yo'nalishlarini ko'rib chiqish mumkin:

- sug'urta bozorini o'rganish, uni bir nechta segmentlarga ajratish, aholi demografiyasi, daromad darajasi va yashash tarziga qarab, tabiiy joylashuv hamda shunga o'xshash tartib-tamoyillarni tahlil qilish;

11 Muallif ishlanmasi



- sug'urta tashkilotining imijini yaratish, masalan, samarali reklama, mijozlarga hozirjavoblik, sug'urta qoplamalarini o'z vaqtida va tezkor to'lab berish;
- mijozlarni jalb qilish uchun sug'urta mahsulotlarini ommalashtirish bo'yicha strategik rejani ishlab chiqish va uning bajarilishini ta'minlash, sug'urta tashkilotlari doirasida turli nominatsiyalarni o'z ichiga olgan tanlovlarni tashkil etish. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda sug'urta tashkilotlarini reytinglash bilan bir qatorda turli nominatsiyalarga ega tanlovlar mavjud bo'lib, bu ularning imijiga hamda shaxsiy brendning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistondagi "Oltin soyabon" nomli sug'urta tashkilotlari tanlovi ushbu jarayonning mahalliy analogi bo'lishi mumkin, demak, mazkur tanlovni yanada rivojlantirish muayyan yo'nalishlarda ijobiy o'zgarishlarga olib keladi;
- sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish, ular o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish, sug'urta tashkiloti shaffofligini ta'minlash, sug'urta tariflari, franshiza va boshqa o'ziga xos shartlarni moslashtirish, individual yondashuvni ta'minlash, sug'urta kalkulyatorini har bir sug'urta turi bo'yicha alohida ishlab chiqish.

Sug'urta sohasini rivojlantirish bo'yicha davlatimiz tomonidan izchil sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda sug'urta bozorining YAIMdagi ulushini oshirish va uning har bir xonadonga kirib borishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5265-sonli<sup>12</sup> qarori hamda 2024-yil 1-martdagi Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-sonli<sup>13</sup> qarorini misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu hujjatlar doirasida mamlakatda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son qarorda sug'urta xizmatlaridan foydalanish jarayonlarini soddalashtirish, sug'urta tashkilotlari shaffofligini ta'minlash, sug'urta tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish, sug'urta shartnomalarini elektron rasmiylashtirish va elektron polislarni aholiga taqdim etish, yagona axborot tizimini yaratish kabi vazifalar belgilangan. Bundan tashqari, aholi o'rtasida sug'urta madaniyatini oshirish, islom moliyasi joriy etilayotgan sharoitda takaful tizimini tatbiq etish hamda yashil sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish va ommalashtirish masalalari ham ko'rib chiqilmoqda.

Sug'urta sohasidagi innovatsiyalarning asosiy tendensiyalarini o'rganishning maqsadga muvofiqligi inkor etilmaydi va innovatsion yechimlarni izlash jarayonida mijozga yo'naltirilgan maqsadlar bilan tasdiqlanadi. Jahonda sug'urta sohasiga innovatsion jarayonlarni joriy etish bo'yicha tadqiqot ishlari hozirgi kunda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda tegishli yo'nalishlar tanlab olindi (2-rasm).



суғурта ташкилотлари фаолиятини рақамлаштириш ва ақлли суғурта маҳсулотларини киритиш, суғурта телематикаси ва булутли технологияларни жорий қилиш бўйича тадқиқотлар



суғурта соҳасининг информацион, ҳуқуқий ва молиявий хавфсизлигини таъминлаш ва уларнинг рақамли технологияларни қўллаган ҳолда самарадорлигини ошириш



суғурта соҳасида стартаплар, фундаментал лойиҳалар, венчур ва бошқа инновацияларни таъбиқ қилиш ва оптимал вариантларини излаш бўйича олиб борилаётган тадқиқотлар

2-rasm. Jahonda sug'urta sohasiga innovatsion jarayonlarni kiritish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish bo'yicha tanlab olingan yo'nalishlar<sup>14</sup>

12 <https://lex.uz/docs/-5692504>

13 <https://lex.uz/docs/-6824178>

14 Muallif ishlanmasi



Innovatsiyalarning pirovard natijasi sug'urta tashkilotlarining samaradorligini oshirish va aholi farovonligini ta'minlash bilan bog'liq. Ularning asosiy xususiyati yangilikni kiritgan shaxs uchun ham, u bevosita yo'naltirilgan shaxs uchun ham sifatli ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi yangilik yoki o'zgarishlarni "takomillashtirish"dan iborat. Sug'urta biznesida innovatsion faoliyatning asosiy subyektlari, sug'urta bozorining asosiy ishtirokchilari sug'urta kompaniyalari bo'lib, ular asta-sekin sug'urta brokerlariga qo'shila boshlaydi.

Sug'urta vositachilari — agentlar va brokerlar faoliyati to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak, agentlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan sug'urta tashkiloti manfaatlarini ko'zlab, sug'urta tashkiloti nomidan sug'urta xizmatlarini taklif etadi.

Sug'urta agentlari, ya'ni sug'urta vositachilaridan farqli ravishda, sug'urta tashkilotlari innovatsion faoliyat yo'nalishlarini takomillashtirishda faol hisoblanadi. Aynan sug'urta tashkilotlari sug'urta bozorida innovatsion faoliyat yetakchilari bo'lib, ularning faoliyati sug'urta bozorining rivojlanishini ta'minlaydi va ehtimoldagi mijozlar qatlamini sug'urta xizmatlari iste'molchilari safiga kiritish asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv zarurati xalqaro sug'urta hamjamiyatida tobora ko'proq muhokama qilinmoqda, bu esa sug'urta qiymati bo'yicha takliflarni zararni qoplash chegarasidan tashqariga, ya'ni sug'urta hodisalarining oldini olish sohasiga yo'naltirish vaqti kelganini ko'rsatmoqda. Piter Manchester ta'kidlaganidek, "mijozlarga sug'urta qiymatini qanday qilib haqiqatda yetkazib berishni qayta ko'rib chiqish orqali sug'urta yo'nalishini qayta shakllantira boshlagan innovatsiyalarning o'sib borayotgan to'lqiniga chiqish imkoniyati mavjud".

Sug'urta bozoriga innovatsiyalarni kiritish pandemiya va uning oqibatida yuzaga kelgan lokdaun sharoitidagi zarurat asosida shakllandi. Ko'rsatilayotgan xizmatlar xususiyatlariga nisbatan sug'urtalovchilarning siyosati asosan kompensatsiyaga emas, balki xavflarni minimallashtirish va mijozlar yo'qotishlarini tubdan yangi formatda boshqarishga yo'naltirilganligini ko'rsatdi. Shuningdek, bu jarayon mijozlar demografiyasidagi tarkibiy o'zgarishlar bilan ham belgilanadi, ya'ni yangi avlod asta-sekin dominant iste'molchilar guruhiga aylanmoqda. Sug'urta tashkilotlarining raqamlashtirish jarayonlarida mijozlarni bir nechta guruhga ajratish mumkin, jumladan: innovatsion texnologiyalarni ijobiy qabul qiladigan va yangiliklarga moyil mijozlar; innovatsiyalarni ehtiyotkorlik bilan, ma'lum muddat sinovdan o'tkazib qabul qiladigan mijozlar; umuman yangiliklarga moyil bo'lmagan va an'anaviy sug'urta xizmatlarini afzal ko'radigan mijozlar; shuningdek, yangiliklarga intiluvchan neomijozlar. Ushbu guruhlar o'xshash xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, aholining sug'urta ehtiyojlarini qondirishda turlicha yondashuvni talab etadi.

Binobarin, sug'urta tashkilotlari tomonidan olib borilayotgan innovatsion siyosat zamon talablariga mos ravishda o'zgarib borishi zarur. Bugungi kunda sug'urta bozorida raqobat muhiti shakllangan bo'lib, sug'urta tashkilotlarining bozordagi yetakchilikni egallashi ma'lum yo'nalishlar va moliyaviy xarajatlarni talab etadi. Umuman olganda, davlatda innovatsion siyosatning olib borilishi aholi ehtiyoj va talablarida ham o'zgarishlarga olib keldi. Shu bilan birga, aholi orasida innovatsiyalarni qabul qilmaydigan qatlam ham mavjudligini inobatga olib, sug'urta tashkilotlari mijozlar siyosatini muvozanatli shakllantirishi zarur. Masalan, "Samsung" kompaniyasi innovatsion tizimli texnologiyalar asosida yangi rusumdagi telefonlarni ishlab chiqarish bilan bir qatorda, byudjetli va arzon modellarni ham taklif etadi. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi mijozlar bazasini kengaytirishdan iborat. Xuddi shuningdek, sug'urta tashkilotlari innovatsion sug'urta mahsulotlari bilan bir qatorda an'anaviy sug'urta xizmatlarini ham qo'llab-quvvatlashi lozim. Mulk sug'urtasini rasmiylashtirgan mijozga boshqa sug'urta turlarini taklif etish uning keyinchalik boshqa sug'urta kompaniyasiga o'tib ketish ehtimolini kamaytiradi. Demak, sug'urta tashkilotlarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishdan iborat.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, sug'urta tashkilotlarida innovatsion faoliyatni joriy etish bugungi globalashuv, raqamlashtirish va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida muqarrar zaruratga aylanmoqda. Innovatsiyalar sug'urta xizmatlarining sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish, biznes jarayonlarini optimallashtirish hamda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, innovatsion underwriting siyosati, raqamli platformalar, marketing va ekotizim yondashuvlari sug'urta tashkilotlariga bozorda ustunlik berib, yangi mijozlar bazasini shakllantirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, yosh avlod iste'molchilarining raqamli xizmatlarga bo'lgan talabi sug'urta kompaniyalaridan moslashuvchan, tezkor va shaffof xizmatlarni taqdim etishni talab qilmoqda.

O'zbekiston sug'urta bozorida olib borilayotgan islohotlar, raqamlashtirish dasturlari, elektron polislar, yagona axborot tizimlari va innovatsion mahsulotlarning joriy etilishi sug'urta tizimining institutsional rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, aholining barcha qatlamlari ehtiyojlarini hisobga olgan holda an'anaviy va innovatsion sug'urta xizmatlarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Kelgusida sug'urta sohasida innovatsion strategiyalarni yanada rivojlantirish, inson kapitalini oshirish, raqamli infratuzilmani mustahkamlash va mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlarni kengaytirish milliy sug'urta bozorining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. To'xtayev B. Sug'urta xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi. – Toshkent, 2020.
2. Qodirov A. Sug'urta bozori va innovatsion rivojlanish. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
3. Rahmonov S. Sug'urta kompaniyalarida innovatsion boshqaruv. – Toshkent, 2021.
4. Karimov D. Sug'urta xizmatlarida marketing innovatsiyalari. – Toshkent, 2018.
5. Usmonov M. Sug'urta tizimida raqamli texnologiyalar. – Toshkent, 2023.
6. Xo'jayev A. Sug'urta bozorining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalar. – Toshkent, 2024.
7. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. – London: Routledge, 2017.
8. OECD, Eurostat. Oslo Manual: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation. – Paris: OECD Publishing, 2018.
9. OECD. Frascati Manual: Guidelines for Collecting and Reporting Data on Research and Experimental Development. – Paris: OECD Publishing, 2015.
10. Swiss Re Institute. Innovations and Digital Transformation in Insurance. – Zurich, 2020.
11. McKinsey & Company. The Future of Insurance: Digitalization and Ecosystem Strategies. – 2021.
12. World Economic Forum. Innovation in the Insurance Industry: Technological Trends. – Geneva, 2019.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>